



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021
maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Nodira EGAMBERDIYEVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

MUNDARIJA

- 3 **U.M.Askarova**
Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchi qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlari
- 8 **M.L.Boltayeva**
Fizika ta'limi jarayonida talabalarning mustaqil uy sharoitida laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatlari
- 17 **M.M.Murtozayeva**
Talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan ishlohotlar hamda nodavlat va notijarat tashkilotlarining o'rni
- 22 **M.A.Asqarova**
Kitobxonlik – intellektual salohiyatni oshiruvchi vositasi sifatida
- 26 **M.X.Toshibekova**
O'quvchilarning o'quv-biluv kompetensiyasini shakllantirishda STEAM texnologiyasining ahamiyati
- 30 **D.A.Muminova**
Xorijiy tajribalarida kitobxonlik
- 36 **O'.M.Asqarova, M.X.Asranbayeva**
Mahalla, oila va maktab hamkorligi modeli asosida noto'liq oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash
- 42 **M.B.Usmonova**
O'quvchilarni badiiy asarlar vositasida milliy axloq sifatlarini rivojlantirish yo'llari
- 47 **N.G.Gulamova**
Talaba-yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni
- 51 **J.Muxiddinova**
Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchining ijodiy yondashuv kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari
- 56 **G.N.Ergasheva**
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'qitishning samarali usullari
- 60 **K.R.Abdullayeva, M.B.Odirova**
Xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni
- 64 **D.A.Abdusamiyev**
O'qituvchi kasbiy deformatsiyasi va uning oldini olish tamoyillari
- 68 **U.Y.Azamov**
O'smirlarda ijtimoiy duny qarashni shakllantirish
- 72 **U.Tumanov**
O'qituvchi mehnat faoliyatida vaqtni to'g'ri tashkil etishga pedagogik yondashuv
- 77 **B.Z.Qayumov**
Talabalar o'quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasining xususiyatlari
- 82 **S.X.Tojiboyeva**
O'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni Abu ibn Sino ta'limotlari asosida rivojlantirishni tashkil etishning funksiyalari
- 86 **G.Yo.Jumanazarova**
Oilashunos olim Abdurashid Munavvarov – dolzarb muammolar tadqiqotchisi sifatida
- 92 **D.Jabborova**
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tolerantlik qobiliyatini shakllantirishda ijtimoiy muhitning ahamiyati
- 96 **Yu.A.Abiyeva**
O'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalar
- 102 **G.N.Narzullayeva**
Oila munosabatlarini gender tengligiga erishishning muhim jihatlari
- 108 **G.A.Inamova**
Yuqori sinflarda ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish (listening) orqali o'qitishni shakllantirish va rivojlantirish
- 118 **R.Sh.Sharofutdinova**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini rivojlantirish
- 124 **M.Muxamadaliyeva**
Boshlang'ich sinf sinflarida to'g'rak ishi va uning mazmun-mohiyati
- 130 **N.T.Mamatxanova**
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari
- M.Azizov**
Turizmlar jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari



BO‘LAJAK TEKNOLOGIYA TA‘LIMI O‘QITUVCHINING IJODIY YONDASHUV KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

J.R.MUXIDDINOVA,
NamDU tadqiqotchisi

Bo‘lajak texnologiya ta‘limi o‘qituvchisi o‘zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik ob‘ektlarni to‘g‘ri tanlab faoliyat ko‘rsatishi, aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual tarzda yoki jamoa bilan birga o‘z bilimini oshirish shakllaridan foydalanish.

Tayanch so‘zlar: samarali usullari, ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish, o‘z kasb mahorati, emotsional-qat‘iylilik, boshqara bilish, kompetensiya, komponent, ijodiy izlanishlar

Будущему учителю технологического образования необходимо выбрать наиболее эффективные методы, способы работы над повышением своего педагогического мастерства, правильный выбор технологического процесса и технических объектов, использование индивидуальных или коллективных форм совершенствования своих знаний с учетом специфики условия.

Ключевые слова: эффективные методы, креативность, техническое мышление, уверенность в себе, профессионализм, эмоциональная устойчивость, менеджмент, компетентность, компонент, творческое исследование.

A future teacher of technology education should choose the most effective methods, ways of working on improving their pedagogical skills, the correct choice of technological process and technical objects, the use of individual or collective forms of improving their knowledge, taking into account the specific conditions.

Key words: effective methods, creativity, technical thinking, self-confidence, professionalism, emotional stability, management, competence, component, creative research.

Oliy ta‘lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning ijodiy fikrlash, mustaqillik, faollik munosabatlarining boyib borishi, dunyoqarashlarining o‘z-o‘zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo‘lajak kasb egalari, shuningdek, o‘qituvchilar uchun ham ta‘lim muassasalarida ta‘lim olish jarayoni - bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli hisoblangan kasbiy bilim, ta‘lim sifati, kompetentlik va darajali mezonlar asosida rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishning eng maqbul davridir.

Hozirgi kunda texnika va texnologiyaning kun sayin rivojlanib borishi,



bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy sharoitlarga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lishi hamda yangi bilimlarga intilishini talab etadi. Bu esa ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan texnologiya o'qituvchilarni mustaqil izlanishga va ishlashga, kasbiy hamda hayotiy muammolarni mustaqil yechib unga ijodiy yondashishga o'rgatish zaruriyatini tug'diradi. Shuning uchun ham mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining bosh vazifasi bo'lib, bunda bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish muhim omil hisoblanadi.

Ular o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Texnologiya ta'limi mutaxassisi muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Texnologiya ta'limi fanlari asoslarini o'rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- texnologiya ta'limi o'qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslikka oid bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga erishish;

- pedagogik va ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo'lgan muammoli vaziyatlarda masalalarni ajratib olish hamda ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik va texnik-texnologik tafakkurni rivojlantirish;

- texnologiya ta'limi o'qituvchining kasbiy faoliyatida individual ta'lim metodini qo'llay olish, o'quv-pedagogik va ishlab chiqarish harakatlarining reproduktiv hamda ijodiy usullarini shakllantirish;

- texnologiya ta'limi o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim kasbiy-pedagogik sifatlarini, ya'ni hamdardlik, bolalarni sevish va boshqalarni rivojlantirish, kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirish.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish kerakligini taqazo etadi, chunki bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash



va o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarini asoslash muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchining kasbiy kompetentligi faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishi va bu maqsadga erishishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak.

O'z bilimini mustaqil oshirish mazmunini kasb ta'limi o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha pedagogik amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasining o'quv xona va ustaxonasidagi aniq sharoitlarga, amaliyotning sharoitlari, ta'lim oluvchilariga moslashtirishi kerak.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi ma'lum maqsad asosida va ma'lum tartibda o'zida quyidagi sifatarni shakllantirib borishi kerak:

– talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olib bilish;

– talabalar bilan emmotsional aloqa o'rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta'sir etish.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi umumiy pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasi va gigienasi, texnologiya ta'limi fanlari bo'yicha ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan savollar ro'yxatini mustaqil o'rganib chiqishlari shart.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchisi o'zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo'llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik ob'ektlarni to'g'ri tanlab faoliyat ko'rsatishi kerak.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchisi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual tarzda yoki jamoa bilan birga o'z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchisi o'z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish va ma'lum maqsadga yo'naltirish zarur. Buning uchun u:

– ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;

– ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Bu o'rinda texnologiya ta'limi mutaxassisni tayyorlashning bo'lajak kasbni egallash bo'yicha o'quv va bilish faoliyatini o'z ichiga oladigan me'yoriy modelni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. U oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tegishli yo'nalish va tayyorgarlik darajasining malakaviy xarakteristikasida ifodalangan va ilmiy asoslangan bilim, ko'nikma va malakalar shaxsning kasbiy muhim xislatlari tarkibini



aks ettiradi. Texnologiya ta'limi o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini bajarishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o'z kuchiga ishonish, o'z kasb mahoratini tinmay oshirib borish, jarayonlarni emotsional-qat'iylik bilan boshqara bilish, kompetensiya yuzaga chiqishi. Texnologiya ta'limi o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanishida psixologik-pedagogik shart-sharoitlar ham muhim ahamiyatga egadir. Kasbiy-pedagogik ijodkorliklarini rivojlantirishning bosqichlari sifaida reproduktiv ijodiy ishlarni bajarish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali talabalarda kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishda reproduktiv darajadagi topshiriqlarning berilishi va talabalar tomonidan ijodiy yondashgan holda ularning yechimlarini auditoriyada va auditoriyadan tashqarida topishlariga yo'naltirilgan faoliyat turi samarali hisoblanadi. Auditoriyada va auditoriyadan tashqarida o'quv jarayonini tashkil etish hamda mustaqil ishlar bajariladi. Bunda talabalarning ta'limiy mashg'ulotlarni tashkil etishga tayyorgarligi, texnik ob'ekt va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda kirish yo'riqnomasi asosida tashkiliy masalalarni hal etish bo'yicha kasbiy-pedagogik ijodkorlik ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Produktiv ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlan-tirishda talabalarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantiruvchi muammoli topshiriqlar, ijodkorlikka yo'naltirilgan masalalar asosida texnik jarayonlarni boshqarishda joriy yo'riqnomalar asosida interaktiv metod va usullardan foydalangan holda muammolarni optimal va samarali tarzda yechimi topiladi. Auditoriyadan tashqari ishlarni bajarishda jumladan: mustaqil ishlar, muammoli videotopshiriqlar, vazifalarni bajarishda kasbiy-pedagogik ijodkorlini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlar berilishiga e'tibor qaratiladi.

Talabalarning ta'lim jarayoni va texnologik vaziyatlarda o'qish faoliyatini nazorat qilish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda kichik guruhlarda ishlash katta samadorlikka ega. Quyidagi texnologiyalar: SMART texnologiya, CASE study, "IQ" aniqlovchi ijodiy mashqlar va muammoli videotopshiriqlar, algoritmik xaritalar va hakazolarda foydalanish orqali ta'lim samadorligi oshadi.

Qisman izlanuvchilik faoliyat jarayonlarini tashkil etishda talabalar muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni faraz qilish jarayonidagi ijodiy fikrlashlariga urg'u beriladi. Texnik ob'ekt va texnologik jarayonda mehnat usullarini bir ob'ektdan boshqa ob'ektga ko'chirishga qisman ijodiy yondashgan holda mashg'ulotlar tashkil etiladi. Mashg'ulotni loyihalashda topshiriqlarni analiz va sintez qilish natijasida samadorlikni oshirish maqsadida qisman o'zgartirishlar kiritish mumkin. Talabalar tomonidan kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlarni mustaqil



bajarilishi ularda kasbiy ijodkorlik komponentlarini qo'llashni taqazo etadi. Tanlangan mavzuga mos ravishda qisman avval bajarilgan ishlardan foydalanilgan holda ilmiy ixtirolar bajarishga muvaffaq bo'lishidi. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va samaradorligini belgilash asosida ilmiy-amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kreativ (ijodkorlik faoliyati natijasida hal etishga qaratilgan) metodik ishlanmalardan foydalanishda kreativ fikrlashga va ijodiy yechimlar chiqariladi. Mashg'ulotda talabalar yangi g'oyalar va xulosalarga ega bo'ladi. Malakaviy pedagogik amaliyotda mustaqil ravishda mashg'ulotlarni tashkil etish asnosida kasbiy-pedagogik ijodkorlikning yangi elementlari namayon bo'ladi. Ular mustaqil ravishda mashg'ulotlarga tayyorlanish, boshqarish, jarayonni tashkil etish, o'quvchilarni baholash orqali mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'tishadi. Texnik ob'ekt va texnologik jarayonda ish samaradorligini oshiruvchi navatorlik ishlanmalari taklif etiladi.

Demak o'rganilgan material bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil ravishda muammoni hal qilish bo'yicha maqbul qaror qabul qilish, ma'suliyatlilik, mustaqillik va kommunikativlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

2. Қўйсинов О.А., Аметов А. Меҳнат дарсларида ўқувчиларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш / Ўрта махсус касб - хунар таълими тизимини раҳбар педагог ва муҳандис педагог кадрлари малакасини оширишнинг илмий-методик муаммолари: Республика илмий-амалий анжуман материаллари.- Тошкент: ЎМКХТРИ, 2003.-Б.179-181.

3. Кулиева Ш.Қ., Қўйсинов О.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигига таъсир кўрсатувчи омиллар.// Касб-хунар таълими.-Тошкент, 2007.-№2.-Б.9-10.